

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (6) – 2026*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА .....	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTAVI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI .....	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА .....	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH .....	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ .....	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR .....	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI .....	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI .....	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI .....	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI .....	86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) .....	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI .....	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI .....	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI .....	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL .....	141-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR .....	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" .....	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" .....	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li*  
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:  
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB  
TALQINLARI..... 211-215

*Rustamova Madina*  
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:  
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*  
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING  
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Isanova Feruza Tulqinovna*  
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING  
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ..... 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*  
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING  
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL ..... 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*  
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*  
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

#### **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*  
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA  
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*  
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK  
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

*Аминова Наргиза*  
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:  
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО  
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ..... 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*  
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li*  
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:  
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*  
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI .... 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH .....	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ .....	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI .....	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI .....	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH .....	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION .....	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI .....	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

**Received:** 16 March 2026

**Accepted:** 01 April 2026

**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

## **ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF EXEMPTION FROM LIABILITY AND REDUCTION OF FINES FOR REPORTING ANTI-COMPETITIVE AGREEMENTS IN UZBEKISTAN**

**Umarova Kholiskhon Nomoz kizi**

Lecturer, Tashkent State University of Law

E-mail: [xolisxonumarova2310@gmail.com](mailto:xolisxonumarova2310@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the legal foundations of exemption from liability and reduction of fines for reporting anti-competitive agreements and concerted practices in Uzbekistan, as well as practical challenges in its application and possible directions for improvement based on foreign experience.

**Keywords:** competition, anti-competitive conduct, concerted practices, exemption from liability, reduction of fines, competent authority, cartel, leniency program.

## **O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Umarova Xolisxon Nomoz qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar haqida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish hamda jarimalarni kamaytirish institutining huquqiy asoslari, amaliy muammolari va xorijiy tajriba asosida uni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqobat, raqobatga zid xatti-harakatlar, muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar, javobgarlikdan ozod qilish, jarimalarni kamaytirish, vakolatli organ, kartel, yumshatuvchi dastur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N37>

**Kirish.** Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatni himoya qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqobatga qarshi kelishuvlar, xususan kartel bitimlari bozor mexanizmlarining buzilishiga, narxlarning sun'iy oshishiga va iste'molchilar manfaatlarining cheklanishiga olib keladi [1], [5]. Shu sababli, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kartel kelishuvlari yuqori darajada yashirin xarakterga ega bo'lib, ularni aniqlash an'anaviy nazorat vositalari orqali murakkab hisoblanadi [4], [5]. Shu bois ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasida "leniency" – ya'ni huquqbuzarlik haqida birinchi bo'lib xabar bergan subyektni javobgarlikdan ozod qilish yoki unga nisbatan sanksiyalarni yengillashtirish instituti keng qo'llaniladi [4], [7], [11].

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu institutning asosiy elementlari joriy etilgan bo'lsa-da, uning amaliy samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmagan [1], [3]. Xususan, normativ-huquqiy asoslarning yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, protsessual

kafolatlarning cheklanganligi hamda tadbirkorlik subyektlarining ushbu mexanizmga nisbatan ishonch darajasining pastligi tizimning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilmoqda [1], [3], [5].

Mazkur maqolaning maqsadi esa O'zbekistonda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan haqida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish va jarimalarni kamaytirish tizimini kompleks tahlil qilish hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mazkur tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining amaldagi raqobat qonunchiligi, xususan "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori, shuningdek Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Chili va Yaponiya tajribasi o'rganildi. Shu bilan birga, kartel huquqbuzarliklarini aniqlash va yumshatuvchi dasturlar samaradorligini baholashga doir xorijiy ilmiy adabiyotlar, xususan Spagnolo va Wills kabi olimlarning qarashlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, formal-yuridik tahlil, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash, xorijiy amaliyot va ilmiy qarashlarni solishtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali amaldagi milliy tizimning afzallik va kamchiliklari, shuningdek uni takomillashtirishning huquqiy yo'nalishlari aniqlab olindi.

**Muhokama va natijalar.** Tovar va moliya bozorlarida raqobatga qarshi kelishuvlar hamda muvofiqlashtirilgan harakatlar eng yashirin va eng xavfli huquqbuzarliklardan biri hisoblanadi. Bunday harakatlar, avvalo, narxlarni sun'iy shakllantirishga, bozorlarni bo'lib olishga, tenderlarda raqobatni cheklashga, shuningdek iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga olib keladi [1], [5]. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida raqobatni cheklovchi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar taqiqlangan, ularni aniqlash tartibini belgilash esa Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiritilgan [1]. Shu bilan birga, Qonunning 20-moddasida kartel yoki muvofiqlashtirilgan harakat ishtirokchisi bo'lgan va bu haqda vakolatli davlat organiga birinchi bo'lib ixtiyoriy murojaat qilgan shaxs ma'muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan [1].

Mazkur qonuniy norma amalda ishlashi uchun uning protsessual mexanizmlari alohida tartibga solinishi zarur. Xususan, "birinchi bo'lib murojaat qilgan shaxs" tushunchasini aniqlash, arizalarni navbat asosida qabul qilish, dalillarning yetariligi va qo'shimcha qiymatini baholash, marker mexanizmini qo'llash, shuningdek keyingi murojaatchilar uchun jarimani kamaytirish tartibini belgilash talab etiladi [3], [4], [5]. Ushbu masalalar alohida metodik tartibda mustahkamlanmasa, 20-modda deklarativ norma bo'lib qolishi, amaliyotda esa turlicha yondashuvlar shakllanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi — "2020–2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi"da quyidagilar orqali til biriktirishlar va "kartel" kelishuvlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini kuchaytirish va halol raqobatni rag'batlantirish nazarda tutilgan:

ijtimoiy ahamiyatga ega va monopol turdagi tovarlar va xizmatlar narxlarini doimiy kuzatib borishning yangi mexanizmini ishlab chiqish;

til biriktirishlar va “kartel” kelishuvlariga qarshi kurashish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bitimlar tuzish;

“kartel” kelishuvlarini aniqlash maqsadida “yumshatuvchi holatlar” dasturi samaradorligini oshirish yo‘li bilan jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan “kartel” kelishuvlari va til biriktirishlarga nisbatan ta‘sir choralari va jarima sanksiyalarini qayta ko‘rib chiqish [2].

Amaldagi huquqiy tartibga ko‘ra, “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasida raqobatga qarshi kelishuv va muvofiqlashtirilgan harakat tushunchasi, shuningdek ularning asosiy turlari belgilangan [1]. Jumladan, raqobatchilar o‘rtasida narxlarni sun‘iy belgilash yoki saqlab turish, bozorni bo‘lib olish, ishlab chiqarish va realizatsiya hajmlarini cheklash, tenderlarda kelishilgan harakatlarni sodir etish kabi holatlar taqiqlanadi va o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi [1]. Qonunning 20-moddasi raqobatga qarshi kelishuv yoki muvofiqlashtirilgan harakat ishtirokchisi bo‘lgan, bu haqda vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki yuridik shaxslar birlashmasini ma‘muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutadi [1]. Biroq mazkur moddada ariza topshirish shakli, uni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, arizalarning navbatini aniqlash mezonlari, dalillarning talab etiladigan hajmi, keyingi murojaatchilarga nisbatan qanday huquqiy oqibatlar qo‘llanishi, shuningdek kartel tashkilotchisi yoki majburlovchi subyektga nisbatan qanday cheklovlar qo‘llanilishi aniq belgilanmagan [1], [3], [5].

Bundan tashqari, Qonunning 35- va 37-moddalarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik haqidagi ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshirilishi, bunday ishlarni qo‘zg‘atish uchun tekshiruvlar, o‘rganishlar hamda murojaatlar asos bo‘lishi, ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish tartibi esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan [1]. Qonunning 42-moddasiga ko‘ra esa raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, qoida tariqasida, tegishli bozorda realizatsiya qilingan tovar tushumining 5 foizi miqdorida moliyaviy sanksiya qo‘llaniladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 4-ilovasi “Raqobatga qarshi kelishuvlarni va muvofiqlashtirilgan harakatlarni aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 6-bobida raqobatga qarshi kelishuv va muvofiqlashtirilgan harakat bo‘yicha javobgarlikdan ozod etish tartibi berilgan bo‘lsa-da, u mazmunan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasini aynan takrorlash bilan cheklanadi.

Shundan kelib chiqib, amaldagi holatda javobgarlikdan to‘liq ozod qilish instituti qonunda mavjud bo‘lsa-da, uning protsessual va tashkiliy asoslari to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu esa amaliyotda quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

**birinchidan**, bir nechta ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida murojaat qilgan vaziyatda ustuvorlikni aniqlash qiyinlashadi;

**ikkinchidan**, faqat birinchi xabar bergan ishtirokchigina javobgarlikdan ozod bo‘lganligi bois dalillarning ahamiyatiga emas, balki vaqt bo‘yicha birinchi xabar berganlik faktiga qaraladi;

**uchinchidan**, yangi va muhim dalil keltirmagan keyingi murojaatlarni baholash mezonlari yetishmaydi. Shu sababli Qonundagi umumiy normani aniq tartib-taomillar bilan to'ldirish amaliy zarurat hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda bunday dastur kartellarni aniqlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida qo'llaniladi [4], [5]. Yevropa Komissiyasining kartel ishlari bo'yicha dasturida korxonalar kartel haqida xabar berib va dalillar taqdim etib, to'liq immunitet yoki jarimaning kamaytirilishiga erishishi mumkin [4]. Bunda faqat birinchi bo'lib murojaat qilgan va Komissiyaga tekshiruv o'tkazish yoki huquqbuzarlikni aniqlash imkonini beradigan dalillarni taqdim etgan korxonalar jarimadan to'liq ozod qilinadi [4]. Keyingi murojaatchilar esa faqat Komissiya ixtiyorida dalillarga nisbatan sezilarli qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan dalillarni bergan taqdirdagina jarima kamaytirilishidan foydalanishi mumkin [4]. Yevropa Ittifoqida shuningdek marker mexanizmi ham mavjud bo'lib, u ariza beruvchining navbatdagi o'rnini ma'lum muddatga saqlab turadi [4].

Yevropa Ittifoqining axborotnomalariga ko'ra, yashirin kartellarni aniqlash ko'pincha ishtirokchi korxonalar bilan hamkorliksiz imkonsiz hisoblanadi [4]. Shu sababli, Komissiya bunday noqonuniy amaliyotlarda ishtirok etgan, biroq ularni fosh etishda hamkorlik qilgan subyektlarni rag'batlantirishni jamoat manfaatiga mos deb hisoblaydi [4]. Kartellarni aniqlashda yoki huquqbuzarliklarni isbotlashda hal qiluvchi hissa qo'shgan korxonalar muayyan shartlar asosida to'liq jarimadan ozod qilinishi mumkin [4]. Komissiya kartel to'g'risida birinchi bo'lib yetarli ma'lumot va dalillarni taqdim etgan xo'jalik yurituvchi subyektni jarimadan to'liq ozod qiladi [4]. Agar murojaat vaqtida Komissiyada kartelni aniqlash uchun yetarli dalillar mavjud bo'lsa, bunday immunitet berilmaydi [4].

O'zbekistonda mavjud amaliyotdan Yevropa Ittifoqining ajralib turuvchi jihatlaridan biri shundaki, immunitet shartlariga javob bermagan subyektlar ham kartel to'g'risida ma'lumot taqdim etish orqali jarimani kamaytirish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Jarimani kamaytirish uchun taqdim etilgan dalillar Komissiyada mavjud materiallarga nisbatan sezilarli qo'shimcha qiymatga ega bo'lishi lozim. Jarimani kamaytirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi [4].

birinchi ariza beruvchi uchun 30–50% gacha;

ikkinchi ariza beruvchi uchun 20–30% gacha;

keyingi ariza beruvchilar uchun 20% gacha.

Spagnolo fikricha, yumshatuvchi dastur kartelni beqarorlashtiradi, chunki karteldan chiqib, organlarga xabar berish kartelda qolishdan ko'ra foydaliroq bo'lib qoladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, mazkur dastur joriy qilingandan keyin kartellar albatta zaiflashganini tasdiqlagan dalillar topilmagan. Biroq dastur organlarga qo'shimcha ma'lumot yetkazib, jarimalarning asosliroq bo'lishiga yordam bergan hamda ishni ko'rib chiqish muddatini taxminan 1,5 yilga qisqartirgan. Shu bilan birga, nazariy jihatdan ular kartel ishtirokchilari o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytirib, kelishuvni ichidan beqarorlashtirishi mumkin.[6], [9].

Amerika Qo'shma Shtatlarida Willsning ta'kidlashicha, yumshatish dasturi monopoliyaga qarshi kurash organlari bilan hamkorlik evaziga qoidabuzarliklar uchun jarimalardan immunitet berish yoki jarimalarni kamaytirish sifatida ta'riflanishi mumkin [9]. Amerika Qo'shma Shtatlarida Adliya Vazirligi bunday dasturni kartellarni aniqlash uchun eng muhim tergov vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Lotin Amerikasining bir qancha davlatlari,

jumladan Argentina, Braziliya, Chili, Meksika kabi davlatlarda ham ushbu amaliyot allaqachon joriy etilgan [7].

Qo'shma Shtatlarda bunday dastur 1978-yilda paydo bo'lgan. Biroq 1993-yildan keyingina Adliya Vazirligi o'zining Korporativ yumshoqlik va Shaxsiy yumshoqlik siyosatini e'lon qilgan. AQShning yumshoqlik dasturi faqat qattiq kartellar (hardcore cartels)ga nisbatan amal qiladi. Mazkur dasturga muvofiq, ma'lum shartlar bajarilgan taqdirda, quyidagi subyektlar jinoiy javobgarlikdan to'liq ozod qilinishi mumkin:

birinchi bo'lib vakolatli organga murojaat qilgan kompaniya;  
yoki birinchi bo'lib vakolatli organga murojaat qilgan jismoniy shaxs.  
Hozirgi kunda AQSh dasturi ikki asosiy mexanizmga asoslanadi [7].

**A turdagi dastur — to'liq jinoiy immunitet.** Bu faqatgina huquqbuzarlik haqida vakolatli organ tekshiruv boshlashidan oldin xabar berilgan taqdirda qo'llaniladi. Mazkur immunitet kompaniyaning yuqori lavozimli rahbarlari, direktorlar va xodimlariga ham tatbiq etiladi. Bunda ular tergov davomida vakolatli organ bilan to'liq hamkorlik qilishi shart.

**B turdagi dastur — tekshiruv boshlanganidan keyin murojaat qilgan shaxslar uchun to'liq immunitet.** Bu mexanizm huquqbuzarlikni isbotlash uchun hali yetarli dalillarga ega bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi. Ushbu turdagi immunitet ham A turdagi mexanizmida nazarda tutilgan shaxslar doirasiga nisbatan tatbiq etiladi [7].

Kartel ishtirokchilaridan ikkinchi yoki undan keyinroq murojaat qilgan shaxslar ham javobgarlikdan to'liq ozod etilmasa-da, agar ular huquqbuzarlikni tan olib, tergov bilan hamkorlik qilsa, ularga nisbatan qo'llaniladigan sanksiya miqdori kamaytirilishi mumkin. Bunday qaror vakolatli organ tomonidan har bir ish bo'yicha alohida baholash asosida qabul qilinadi.

Bundan tashqari, bunday kompaniyalar "Amnesty Plus" dasturidan ham foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu dasturga ko'ra, agar kompaniya o'zi ishtirok etgan boshqa raqobatga qarshi huquqbuzarlikni aniqlashda ham vakolatli organ bilan hamkorlik qilsa, unga nisbatan qo'llaniladigan sanksiya qo'shimcha ravishda kamaytirilishi mumkin [7].

Mazkur dasturdan foydalanishni istagan kompaniya yoki jismoniy shaxs kartelni tashkil qilgan yoki boshqa ishtirokchilarni kartelga majburan jalb qilgan bo'lmasligi lozim.

Chili Milliy iqtisodiy prokuraturasi materiallariga ko'ra, delación compensada dasturi kartelda ishtirok etgan shaxslar yoki kompaniyalarga, agar ular huquqbuzarlikni isbotlashga olib keluvchi dalillarni taqdim etsa, sanksiyalardan ozod bo'lish yoki ularni kamaytirish imkonini beradi [10]. Chili tizimi huquqiy aniqlik berish va organ diskretsiyasini cheklash maqsadida maxsus leniency guideline bilan mustahkamlangan [10]. Mazkur yondashuv O'zbekiston uchun protsessual metodika ishlab chiqishda muhim qiyosiy manba bo'lishi mumkin [3], [10]. Noqonuniy xatti-harakatni uyushtirgan yoki boshqalarni unda ishtirok etishga majburlaganlar mazkur huquqdan chetlashtiriladi.

Ammo mazkur yengillikni qo'llash uchun ham bir qancha talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

yetarli dalillarni to'plashga samarali hissa qo'shadigan aniq, to'g'ri va tekshirilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi;

Milliy iqtisodiy prokuratura sudga shikoyat bergunga qadar yoxud ishni tugatish haqida qaror qabul qilmagunga qadar yengillik to'g'risidagi arizani oshkor qilmasligi;

arizani topshirgandan so'ng noqonuniy xatti-harakatda ishtirok etishni darhol to'xtatishi.

Umuman olib qaraganda, Chilida raqobat huquqi bo'yicha mutaxassislarining xulosasiga, shuningdek 2020-yildagi Raqobat organlari tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, yengillik siyosati kartelni to'xtatishning eng kuchli vositasi sifatida e'tirof etiladi. [12]

Yaponiyada yengillik siyosati 2006-yildan beri qo'llanib kelinadi, 2020-yildan esa qayta ko'rib chiqildi. Yengillik tizimiga ko'ra, Yaponiya Adolatli Savdo Komissiyasi (JFTC) qoidabuzarlik uchun ma'muriy jarima solinganda, jarima stavkasi korxonalarining JFTC tergovidagi hamkorlik darajasiga qarab kamayadi. Mazkur dastur bo'yicha murojaat qilgan ariza beruvchilar JFTC tergovidagi hamkorlikka undashga qaratilgan va bozor tadqiqotlari davomida olingan ma'lumotlardan ma'lumot beruvchining shaxsiy roziligi asosida ishlarni aniqlash uchun foydalanadi.

Yaponiyaning Adolatli Savdo Komissiyasi (Japan Fair Trade Commission) rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, kartel va tender kelishuvlari bo'yicha yumshatuvchi holatlar dasturi mavjud bo'lib, kompaniyalar mustaqil ravishda huquqbuzarlikni xabar qilishi va materiallar taqdim etishi orqali qo'shimcha to'lovdan ozod bo'lishi yoki uni kamaytirishga erishishi mumkin. Komissiya 2024-moliya yilida dastur doirasida 109 ta o'zini o'zi xabar qilish arizasini olganini bildirgan. Bu esa mazkur mexanizm kartellarni ochishda amaliy jihatdan ishlayotganini ko'rsatadi.

Agar kompaniya jazolovchi choralarni qo'llashdan ozod etilishi yoki jarimani kamaytirishni xohlasa, belgilangan tartibda hisobot taqdim etishdan tashqari quyidagi shartlarni ham bajarishi lozim:

ariza beruvchi hisobotni topshirishdan oldin JICA yoki tashqi ishlar vazirligidan firibgarlik amaliyoti yuzasidan hech qanday so'rov olmagan, Adolatli Savdo Komissiyasi yoki boshqa davlat organlari tomonidan jazolanmagan, shuningdek hibsga olinmagan yoki jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo'lishi kerak;

ariza beruvchi hisobot topshirilgandan keyin hech qanday firibgarlik amaliyotini sodir etmasligi, shuningdek xabar qilingan holatlardan tashqari boshqa firibgarlik amaliyotlaridan xabardor emasligi va kelgusida hech qanday firibgarlik amaliyotlarida ishtirok etmasligi haqida deklaratsiya taqdim etishi kerak;

ariza beruvchi firibgarlik amaliyoti sodir etilgan loyiha bo'yicha tender jarayonidan chiqishi kerak (agar shartnoma hali imzolanmagan bo'lsa);

hisobot topshirilgan kundan boshlab uch hafta ichida ariza beruvchi firibgarlik amaliyotlarining takrorlanishining oldini olish bo'yicha tegishli choralarni ishlab chiqishi hamda choralarni qo'llashdan ozod etish yoki ularni kamaytirish qaroridan keyin ushbu choralar ijrosi holati yuzasidan hisobot taqdim etishini ko'rsatuvchi yozma deklaratsiyani topshirishi kerak;

choralardan ozod etish yoki ularni kamaytirish qo'llanilgandan so'ng kompaniya firibgarlik amaliyotlarining takrorlanishining oldini olish bo'yicha ko'rgan choralarning amalga oshirilish holati haqida uch yil davomida kamida yiliga bir marta JICAga hisobot taqdim etishi shart. Agar kompaniya uzrli sabablarsiz bunday hisobotni taqdim etmasa, choralarni qo'llashdan ozod etish yoki ularni kamaytirish bekor qilinadi [11].

Ixtiyoriy ravishda xabar berish masalasiga kelsak, ariza beruvchi JICA loyihalari doirasida o'ziga ma'lum bo'lgan barcha firibgarlik amaliyotlari haqida xabar berishi shart.

Shuningdek, u xabar qilingan holatlardan tashqari boshqa firibgarlik amaliyotlaridan xabardor emasligini va kelgusida hech qanday firibgarlik amaliyotlarida ishtirok etmasligini tasdiqlashi kerak. Shu sababli, agar choralarni qo'llashdan ozod etish yoki ularni kamaytirish berilganidan keyin muayyan vaqt ichida ilgari xabar qilinmagan firibgarlik amaliyotlari aniqlansa yoki ariza beruvchi yangi firibgarlik amaliyotlarini sodir etsa, qoida tariqasida, u immunitet olish huquqidan mahrum bo'ladi. Bundan tashqari, ariza beruvchining firibgarlik amaliyotlarini takroran sodir etgani inobatga olinib, yangi firibgarlik amaliyotlari xabar beruvchining murojaati va shunga o'xshash holatlar natijasida aniqlangan bo'lmasa, unga nisbatan yanada og'irroq jazolar qo'llanishi mumkin [11].

**Xulosa.** Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 4-ilovasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda unda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar to'g'risida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish yoki jarimani kamaytirish tartibini belgilovchi normalarni nazarda tutish taklif etiladi.

Mazkur qo'shimchalarda quyidagi asosiy mexanizmlarni belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

**birinchidan**, raqobatga qarshi kelishuv yoki muvofiqlashtirilgan harakatlar to'g'risida vakolatli davlat organiga birinchi bo'lib ixtiyoriy ravishda murojaat qilgan hamda huquqbuzarlikni aniqlash uchun yetarli dalillarni taqdim etgan xo'jalik yurituvchi subyektning ma'muriy va moliyaviy javobgarlikdan to'liq ozod qilish;

**ikkinchidan**, vakolatli organga keyingi bo'lib murojaat qilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan faqat jarimani kamaytirish mexanizmini qo'llash hamda buni taqdim etilgan dalillarning huquqbuzarlikni aniqlashdagi yangi va muhim ahamiyatga egaligi bilan asoslash;

**uchinchidan**, arizalarni navbat asosida qabul qilish mexanizmini joriy etish, ya'ni ariza beruvchi subyektning ustuvorlik tartibidagi o'rnini qayd etish va dalillarni taqdim etish uchun zarur muddat belgilash;

**to'rtinchidan**, raqobatga qarshi kelishuvni tashkil etgan yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni bunday kelishuvga majburan jalb qilgan subyektlarga nisbatan javobgarlikdan to'liq ozod qilish choralarni qo'llamaslik;

**beshinchidan**, arizalarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ko'rib chiqish, dalillarni baholash, shuningdek vakolatli organ bilan hamkorlik qilish majburiyatlari hamda qaror qabul qilish tartibini aniq belgilash;

**oltinchidan**, mazkur tartib doirasida taqdim etilgan ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash hamda tijorat siri va boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash.

Mazkur qaror loyihasining qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 19-, 20-, 35-, 37- va 42-moddalarini amaliy jihatdan to'liq ishlashini ta'minlashga, raqobatga qarshi kelishuvlarni aniqlash samaradorligini oshirishga, tadbirkorlik subyektlari uchun aniq va samarali huquqiy tartibni shakllantirishga hamda tovar va moliya bozorlarida halol raqobat muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-850, 03.07.2023. <https://lex.uz/docs/-6518381>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni, 06.07.2020. <https://lex.uz/ru/docs/-4887654>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 256-son qarori, 01.05.2024. <https://lex.uz/ru/docs/-6907023>
4. European Commission. Commission Notice on Immunity from fines and reduction of fines in cartel cases, OJ C 298, 08.12.2006. [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=oj:JOC\\_2006\\_298\\_R\\_0017\\_01](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=oj:JOC_2006_298_R_0017_01)
5. Whish, R., Bailey, D. *Competition Law*. 11th ed. Oxford University Press, 2021. [https://www.researchgate.net/publication/273736895\\_Competition\\_Law\\_by\\_R\\_Whish\\_and\\_D\\_Bailey\\_Oxford\\_Oxford\\_University\\_Press\\_2012\\_7th\\_edition\\_1015\\_pp\\_3699\\_ISBN\\_978-0-19-958655-4](https://www.researchgate.net/publication/273736895_Competition_Law_by_R_Whish_and_D_Bailey_Oxford_Oxford_University_Press_2012_7th_edition_1015_pp_3699_ISBN_978-0-19-958655-4)
6. Spagnolo, G. *Leniency and Whistleblowers in Antitrust*. [https://www.researchgate.net/publication/5009832\\_Leniency\\_and\\_Whistleblowers\\_in\\_Antitrust](https://www.researchgate.net/publication/5009832_Leniency_and_Whistleblowers_in_Antitrust)
7. U.S. Department of Justice, Antitrust Division. *Leniency Policy; Antitrust Division Leniency Policy and Procedures*. <https://www.justice.gov/atr/page/file/1490246/dl?inline>
8. U.S. Department of Justice, Antitrust Division. *Leniency Policy for Individuals*. <https://www.justice.gov/atr/leniency-policy>
9. Wills, W.P.J. *The Use of Leniency in EU Cartel Enforcement*. [https://www.researchgate.net/publication/308984258\\_The\\_Use\\_of\\_Leniency\\_in\\_EU\\_Cartel\\_Enforcement\\_An\\_Assessment\\_After\\_Twenty\\_Years](https://www.researchgate.net/publication/308984258_The_Use_of_Leniency_in_EU_Cartel_Enforcement_An_Assessment_After_Twenty_Years)
10. Fiscalía Nacional Económica (Chile). *Leniency Guideline / Internal Guidelines on Leniency in Cartel Cases*. [https://www.fne.gob.cl/wp-content/uploads/2017/04/Guidelines\\_Leniency\\_Cartel\\_Cases.pdf](https://www.fne.gob.cl/wp-content/uploads/2017/04/Guidelines_Leniency_Cartel_Cases.pdf)
11. Japan Fair Trade Commission. *Annual Report of the JFTC FY2024; leniency program materials*. [https://www.jftc.go.jp/file/AR2024-2025\\_1.pdf](https://www.jftc.go.jp/file/AR2024-2025_1.pdf)
12. Leniency program. <https://centrocompetencia.com/en/leniency-programs/>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).